

**TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI TARKIBIDA
SAMARQAND VILOYATIDA MUSTAMLAKA SIYOSIY-MA'MURIY
BOSHQARUV TIZIMNING O'RNLATILISHI**

Sultanova Shahnoza Palvannazir qizi

Xorazm viloyati Xiva tumani, 6 sonli maktab tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda Vatanimiz tarixiga yangidan va xolisona nazar tashlash, ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi mustamlakachilik davri tarixi xususan, Samarqand viloyati tarixini o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, shu bilan birga ijtimoiysiyoziy va ma'naviy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: General-gubernator, Zarafshon okrugi, Nizom, Harbiy, Boshqarma, Boshqarma

Hozirgi paytda mamlakatimizning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va madaniy merosni chuqur o'rganish, ularni asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni milliy istiqlol g'oyalari atrofida mustahkam jipslashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu keng qamrovli vazifalarni izchil amalga oshirishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani ham yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston tarixini izchil hamda xaqqoniy tarzda o'rganish yuzasidan ko'plab sa'y-harakatlar, turli darajadagi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Vatanimiz tarixiga yangidan va xolisona nazar tashlash, ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi mustamlakachilik davri tarixi xususan, Samarqand viloyati tarixini o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, shu bilan birga ijtimoiysiyoziy va ma'naviy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev alohida to'xtalib, "Samarqand tuprog'ida voyaga yetgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodiy Shukuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy, Abdulhamid Majidiy singari o'nlab ma'rifikat fidoyilarining qoldirgan merosini bugungi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirishda, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda"¹ deya haqli ta'kidlab o'tgan.

¹ Мирзиёев Ш. Самарқанд – Ер юзининг сайқали // Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. –Тошкент.; Ўзбекистон, 2017. –Б. 178.



Bundan tashqari, Samarqandda - Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik maktabini tashkil etsak, o'ylaymanki, juda foydali bo'ladi² deb Samarqand diyoriga alohida e'tibor bergen.

Shundan kelib chiqib bugungi kunda O'zbekiston tarixi, shu jumladan, Samarqand viloyati tarixini, uning Turkiston general-gubernatorligida tutgan o'rnini bir yoqlama qarashlar hamda o'tmishni soxtalashtirishdan voz kechgan holda, zamonaviy yondashuvlar asosida har tomonlama xolis va haqqoniy yoritish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

1868-yil 23-iyunda Buxoro amiri Turkiston general gubernatori fon Kaufman bilan sulk tuzib, Rossiyaning vassaliga aylandi. Bu sulhga ko'ra, Buxoro amiri mustaqilligini yo'qotibgina qolmay, Samarqand, Kattaqo'rgon va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ham ajraldi. Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan xududlarda ma'muriy-hududiy birlik, ya'ni markazi Samarqand bo'lgan Zarafshon okrugi tuzildi, uning boshlig'i etib Aleksandr Konstantinovich Abramov tayinlandi. 1867-yildagi "Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarniboshqarish haqidagi vaqtli Nizom loyihasi" deb atalgan qonunlar majmuasiga ko'ra ko'chmanchi aholigaikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqolliklar) boshqaruv tizimi joriyqilindi. Turkiston general-gubernatorligi tomonidan 1868-yilda tashkil etilgan Zarafshon okrugidastlab Samarqand va Kattaqo'rgon bo'limlaridaniboratbo'ldi. 1871-yilda uarga yangi ma'muriy-hududiy birlik-tog'li tumanlar qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisidajoylashgan mayda bekliklardantuzildi. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yichadasturiy hujjatlarning ishlab chiqarilishida "harbiy vaziyfa" omili xal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ana shu omil Turkiston general-gubernatorining 1868-yil 19-iyunda tasdiqlangan "Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari"da ham o'z aksini topdi. Hujjatning asosiy majmuyi K.P.Kaufmanning bevosita rahbarligida ishlab chiqildi, unda ma'muriy tizim "harbiy-xalq boshqaruvi" debataldi.

1886-yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish nizomi"ga muvofiq, Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi o'zgartirildi. Bunda mavjud birliklarni unifikatsiyalash prinsipiiga izchil rioya qilina boshlandi. Zarafshon okrugi Samarqand viloyati aylantirildi³. Uningtarkibiga Sirdaryo viloyatining Xo'jandva Jiz

² Мирзиёев Ш. Миллий тараккиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; Ўзбекисон, 2017. –Б. 491.

³ История Самарканда. –Т.: Фан, Т. 1.–С. 304.



zax uyezdlari o'tkazildi vakeyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rgon, Samarqand va Xo'jand uyezdlaridan tashkiltopdi⁴.

Shunday qilib, 1886-yiigi Nizomdan so'ng o'lka idorasi markaziy, viloyat, tuman (uyezd), jabha (uchastka), qishloqva shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi. Samarqand shahri viloyat boshqaruvi qarorgohi hisoblangan.

Siyosiy boshqaruvda olib borilgan o'zgarishlar mahalliy boshqaruvdagi tashkilot vakadrlarning shakllanishiga olib keldi. Jumladan, dastlab Zarafshon okrugida Samarqandva Kattaqurgon bo'limlari tashkil etilgan edi. Shu munosabat bilan chor ma'muriyati tomonidan okrug boshqaruv tizimida yangi lavozimlar tashkil etildi. Xususan, Turkiston general-gubernatorining 1869-yil 24- oktyabrdagi tasdig'i bilan Zarafshon okrugi boshqaravi asosan quyidagi lavozimlardan iborat bo'ldi:

-Zarafshon okrugi boshlig'i,

-Zarafshon okrugi devonxonasi boshlig'i,

-Devonxonaish yurituvchisi; Bo'limlari bo'yicha:

-Samarqand Bo'limi

-Kattaqo'rgon bo'limi boshlig'i,

-Bo'limyordamchilari (biri ruslardan. yanabiri mahalliy aholi vakilidan) tarjimonlar va boshqa lavozimlar shular jumlasigakirdi.

"Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari"ga ko'ra, okrug boshlig'i izmidaharbiy, ma'muriy, politsiya va sudlov hokimiysi bo'lgan. Shu bilan bir qatorda, Zarafshon okrugi ma'muriyatigadiplomatik vazifalar ham berilgandi. Ya'ni, Zarafshon okrugi boshlig'ining vakolatiga qo'shni Buxoro amirligining bekliklari bilan "cheqaramunosabatlarini olib borish" hamkirdi.

Okrugni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o'zi tayinlaydigan kishilar boshqargan. Zarafshon okrugi markazi hisoblangan Samarqand shahrida ham shahar boshqaruvi tarkibi quyidagi bo'limlardan iborat bo'lgan:

 Okrugda umumxalq ishlari bo'yicha mudir va shahararxitektori.

 Okrugda sug'orish ishlari bo'yichamudir.

 Okrugdagagi aksiz soliqlari bo'yichamudir.

 Shaharhokimi.

Aytish joiz, harbiylashtirilgan byurokratiya okrugdagi (keyinchalik viloyatdagi) boshqaruv tizimining barchaasosi nuqtalarini egallagan edi. Faqat volost va qishloqdarajasidagi boshqaruvni tashkil etish go'yo mahalliy jamiyat ixtiyoriga berilgandi.

⁴ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. –Т.: Академия, 2002.



1886-yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”dan so‘ng Zarafshon okrugi Samarqand viloyati deb o‘zgartirildi va viloyat, tuman, (uyezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi. Viloyat boshqaruvi: harbiy gubernator va viloyat boshqarmasidan iborat bo‘ldi⁵. Samarqand viloyat boshqarmasi 3 bo‘limdan iborat bo‘lgan:

- Farmoyishberadigan bo‘lim;
- Xo‘jalik bo‘limi;
- Ssuda bo‘limi;

Samarqand viloyat boshqarmasi harbiy gubernator gabo‘ysungan. Viloyatni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o‘zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan. Ular harbiy va fuqaro hokimiyatini o‘z qo‘lidatutgan. Harbiy sohada viloyatdagi qo‘sishinlar (diviziya yoki korpus) qo‘mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo‘lgan barchama’muriy, politsiya va sud hokimiyati ham ularning izmidabo‘lgan. Ya’ni, harbiy gubernatorlarga mohiyatan diktatorlik vakolatlari berilgan edi. Bular: volost boshqaruvchilarini lavozimiga tasdiqlash yoki saylovlar bekor qilingan taqdirda, ulami o‘z ixtiyoriga ko‘ra tayinlash, xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan taqdirda, yangi saylovlarini tayinlash, o‘z ixtiyorigako‘ra, uyezd ma’muriyati a’zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezdboshligi bundan mustasno bo‘lib, ular to‘grisida faqat general-gubernator nomiga taqdimnomayozilardi); uyezd boshliqlari tubaholivakillariga belgilangan jarimani to‘lash yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko‘rib chiqqan.

Samarqand viloyatini 1886-yildan 1917-yilga qadar 8 ta gubernator boshqargan bo‘lib, o‘rtahisobda ulaming har biriga 3-4 yil muddatdan to‘g‘ri kelgan. Tarixiy ma’lumotlarbu gubernatorlar - A. Yafimovich, N. Rostovtsev, M. Federov, V. Medinskiy, A. Gasket, A. Galkin, N. Likoshin kabilarning faoliyatiga oid keng ma’lumotlar beradi. Ularning barchasi ma’lumotli, zodagon dvoryanlar bo‘lgan. Viloyat harbiy gubernatorlarining maoshi 15 ming rublgacha bo‘lib, bu markaziy Rossiyadagi gubernatorlamikidan 2 barobar ko‘p edi. Samarqand viloyat boshqarmasi quyidagi shtatlardan iborat bo‘ldi:

- 1) Viloyat boshqarmasi raisi (shuningdek, harbiy gubernatory ordamchisi);
- 2) Maslahatchilar (Bo‘lim boshliqlari);
- 3) Ish yurituvchilar;
- 4) Ish yurituvchilar ming yordamchilari;

⁵ Бродовский М. Заметки о земледелии в Самаркандском районе // Туркестанский сборник. –СПб., 1873.–С. 419447.



5) buxgalter;

6) Tarjimon.

Viloyat boshqarmasi raisi shuningdek, harbiy gubernator yordamchisi hisoblangan. U harbiy gubernator tobi qochgan, yo‘q bo‘lganyoki bo‘shatilgan hollarda uning xizmat

vazifasini bajargan. Gubernatoryordamchisi general gubernator taqdim nomasi orqali is hqatayinlangan. Samarqand viloyat boshqarmasi vazifasiga quyidagilar kirgan:

-viloyatnima‘muriybo‘lishvatashkiletish;

-hukumat qonun va farmoyishlarini e’lon qilish;

-amaldorlami ishga tayinlash, ishdan chetlatish vamexnat ta’tili berish, mukofotlarga taqdim etish, nafaqa va maosh belgilash, mansabdar shahslami sudga topshirish:

-chet elliklami fiiqarolikka qabul qilish;

-aholio‘rtasidayernitaqsimlash;

-viloyatda obrok Bo‘limlarini boshqarish;

-viloyatda yarmarka va bozorlami ta’sisetish;

-

viloyatning statistikma‘lumotlarini to‘plashmahalliyaholidansoliqvato‘lovlar niolish;

-fuqarolik va jinoyat ishlarini suddako‘rilishgatayyorlash

-maxfiy hujjalalarini tuzish;

-viloyatdagi barcha savdo va pudratlami yurgizish, shartoomalar tuzish.

Bular gubernator devonxonasi, gubernya vrachlik mahkamasi, davlat mulki palatasi, okrug sudlari va hokazo. Shuningdek viloyat tibbiy nazorati viloyat vrachiga yuklangan, u gubernya vrachligi nazoratchisi huquqlaridan foydalangan va bevosita harbiy gubernatorga bo‘ysungan. Viloyat boshqarmasi qoshida irrigatsiya ishlarini boshqaruvchi amaldor bo‘lib, asosiys ug‘orish kanallari, sug‘orish ariqlariga qo‘srimcha bo‘lgan va ulardan ajralib chiquvchi sug‘oruvchi kanallar, suvo‘tkazgichlarini nazorat qilish, yangi irrigatsiya inshootlari, mavjud inshootlami yaxshi tutish, ta’mirlash va qayta qurishda texnik ko‘rsatmalar bergen.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi harbiy yurishlari natijasida, Buxoro amirligining Xo‘jand, O‘ratepa, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on kabi siyosiy jihatdan muhim strategik o‘ringa hududlari ajratib olinib, bu hududda dastlab Zarafshon okrugi keyinchalik esa, Samarqand viloyatitashkil etildi. Shundan boshlab, Rossiya imperiyasi ma’muriyati tomonidan o‘zining manfaatlaridan kelib chiqib

mustamlakachilik siyosati amalga oshirdi. Bu davrda Rossiya imperiyasi sanoat korxonalari uchun zarar bo‘lgan paxta maxsuloti yetkazib berish birinchi darajaga ko‘tarilib, qishloq xo‘jaligida dehqonchilik qilinadigan sug‘oriladigan deyarli barcha yerlarga paxta yetishtirish kuchaytirildi. Shu bilan birga viloyatda mustamlakachilik boshqaruv tizimi to‘liq o‘rnatildi.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. Самарқанд – Ер юзининг сайқали // Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. –Тошкент.; Ўзбекистон, 2017. –Б. 178.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; Ўзбекисон, 2017. –Б. 491.
3. История Самарканда. –Т.: Фан, Т. 1.–С. 304.
4. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистанда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002.
5. Бродовский М. Заметки о земледелии в Самаркандском районе // Туркестанский сборник. –СПб., 1873.–С. 419-447.

